**Hujjat 22.02.2021 sanasi holatiga**

PDF-faylidagi rasmiy manba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

## ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETIDA KADRLAR TAYYORLASH TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDA

Andijon viloyatida yuqori malakali mutaxassislar — xorijiy tillar o'qituvchilari tayyorlashni tashkil etishni takomillashtirish va sifatini oshirish, buning uchun zamonaviy talablarga javob beradigan zarur o'quv va moddiy-texnik bazani tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Andijon davlat tillar pedagogika institutini tugatish va uning negizida Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakultetini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Belgilansinki:

tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining 1-ilovaga muvofiq binolari va inshootlari, shuningdek boshqa mol-mulki va aktivlari Andijon davlat universiteti balansiga beriladi;

tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining o'qiyotgan talabalari kontingenti Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakulteti tarkibiga o'tkaziladi.

3. Andijon davlat tillar pedagogika institutini tugatish va uning negizida Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakultetini tashkil etish bo'yicha 2-ilovaga* muvofiq tarkibda Komissiya tashkil etilsin (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi).

* 2-ilova berilmaydi.

Komissiya (U.N.Tashkenboyev) bir oy muddatda:

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Andijon davlat tillar pedagogika institutini tugatish bilan bog'liq chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirsin;

**Joriy versiya**

PDF-faylidagi rasmiy manba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETIDA KADRLAR TAYYORLASH TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDA

Andijon viloyatida yuqori malakali mutaxassislar — xorijiy tillar o'qituvchilari tayyorlashni tashkil etishni takomillashtirish va sifatini oshirish, buning uchun zamonaviy talablarga javob beradigan zarur o'quv va moddiy-texnik bazani tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Andijon davlat tillar pedagogika institutini tugatish va uning negizida Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakultetini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Belgilansinki:

tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining 1-ilovaga muvofiq binolari va inshootlari, shuningdek boshqa mol-mulki va aktivlari Andijon davlat universiteti balansiga beriladi;

tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining o'qiyotgan talabalari kontingenti Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakulteti tarkibiga o'tkaziladi.

3. Andijon davlat tillar pedagogika institutini tugatish va uning negizida Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakultetini tashkil etish bo'yicha 2-ilovaga* muvofiq tarkibda Komissiya tashkil etilsin (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi).

* 2-ilova berilmaydi.

Komissiya (U.N.Tashkenboyev) bir oy muddatda:

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Andijon davlat tillar pedagogika institutini tugatish bilan bog'liq chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirsin;

o‘quv, laboratoriya va yordamchi bo‘linmalarning tarkibi va tuzilmasini qayta ko‘rib chiqsin, universitet faoliyatida, shu jumladan uning binolari va inshootlaridan foydalanish masalalarida bir-birini takrorlash va parallelizmni bartaraf etishni nazarda tutsin;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi bilan birgalikda tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining binolari, inshootlari, mol-mulki va aktivlari belgilangan tartibda Andijon davlat universiteti balansiga berilishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ikki oy muddatda:

Andijon davlat universitetining tashkiliy tuzilmasi va ustaviga zarur o‘zgartirishlar kiritsin;

Andijon davlat universitetining boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi, texnik va o‘quv-yordamchi xodimlari soni va tarkibini qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiqlashtirsin;

Andijon davlat universitetining yangidan tashkil etilayotgan xorijiy tillar fakulteti uchun eng malakali, shu jumladan tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining professor-o‘qituvchilari tarkibidan pedagog kadrlarni tanlov asosida sifatli tanlab olsin.

Andijon davlat tillar pedagogika instituti huzuridagi 1 va 2-akademik litseylar Andijon davlat universiteti huzuridagi 4 va 5-akademik litseylar deb qayta nomlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda Andijon davlat tillar pedagogika instituti tugatilishi munosabati bilan bo‘shab qoladigan xodimlarni belgilangan tartibda ishga joylashtirish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ikki oy muddatda Andijon davlat universitetini rivojlantirish dasturini ishlab chiqsin hamda Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari kompleksi bilan kelishgan holda tasdiqlasin. Dasturda quyidagilar nazarda tutilsin:

o‘quv, laboratoriya va yordamchi bo‘linmalarning tarkibi va tuzilmasini qayta ko‘rib chiqsin, universitet faoliyatida, shu jumladan uning binolari va inshootlaridan foydalanish masalalarida bir-birini takrorlash va parallelizmni bartaraf etishni nazarda tutsin;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi bilan birgalikda tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining binolari, inshootlari, mol-mulki va aktivlari belgilangan tartibda Andijon davlat universiteti balansiga berilishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ikki oy muddatda:

Andijon davlat universitetining tashkiliy tuzilmasi va ustaviga zarur o‘zgartirishlar kiritsin;

Andijon davlat universitetining boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi, texnik va o‘quv-yordamchi xodimlari soni va tarkibini qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiqlashtirsin;

Andijon davlat universitetining yangidan tashkil etilayotgan xorijiy tillar fakulteti uchun eng malakali, shu jumladan tugatilayotgan Andijon davlat tillar pedagogika institutining professor-o‘qituvchilari tarkibidan pedagog kadrlarni tanlov asosida sifatli tanlab olsin.

Andijon davlat tillar pedagogika instituti huzuridagi 1 va 2-akademik litseylar Andijon davlat universiteti huzuridagi 4 va 5-akademik litseylar deb qayta nomlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda Andijon davlat tillar pedagogika instituti tugatilishi munosabati bilan bo‘shab qoladigan xodimlarni belgilangan tartibda ishga joylashtirish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ikki oy muddatda Andijon davlat universitetini rivojlantirish dasturini ishlab chiqsin hamda Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari kompleksi bilan kelishgan holda tasdiqlasin. Dasturda quyidagilar nazarda tutilsin:

universitetda oʻquv-tarbiya jarayoni sifatini taʼminlash, shu jumladan ilgʻor axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, masofadan turib oʻqitish shakllari elementlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar (texnik, dasturiy, metodik shart-sharoitlar) yaratish, shu jumladan mamlakatimiz va xorijning yetakchi oliy taʼlim muassasalarining oʻqituvchilari maʼruza oʻqishi yoʻli bilan taʼminlash;

universitetda har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashni, yuqori professionalizmni, ijtimoiy va shaxsiy faollikni taʼminlaydigan maʼnaviy-axloqiy ishlarni tashkil etish;

zamonaviy oʻquv-metodik komplekslarni tayyorlash va nashr etish, axborot-resurs markazi fondini yangi oʻquv, ilmiy, kasbga doir davriy adabiyotlar bilan muntazam yangilash;

yosh pedagog kadrlarni tarbiyalashning amaliy mexanizmlarini joriy etish, respublikaning yetakchi ilmiy va taʼlim muassasalarida muntazam stajirovkalarni tashkil etish yoʻli bilan professor-oʻqituvchilar tarkibi malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish;

universitetda ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, qoʻshma innovatsiya va amaliy ilmiy loyihalarni ishlab chiqish boʻyicha kadrlarning buyurtmachilari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

oʻquv auditoriyalari, laboratoriyalarni zamonaviy laboratoriya, kompyuter texnikasi bilan jihozlashni davom ettirish, talaba yoshlarga munosib yashash sharoitlari yaratish, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanishi uchun universitetning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2010-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi budjeti parametrlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan tegishli oʻzgartirishlarni kiritsin.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakultetiga keyingi yillarda taʼlimning aniq yoʻnalishlari boʻyicha qabul kvotasini belgilashda ushbu ixtisoslik mutaxassislariga boʻlgan real talabdan kelib chiqsinlar.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi oʻrinbosari R.S. Azimov va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

universitetda oʻquv-tarbiya jarayoni sifatini taʼminlash, shu jumladan ilgʻor axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, masofadan turib oʻqitish shakllari elementlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar (texnik, dasturiy, metodik shart-sharoitlar) yaratish, shu jumladan mamlakatimiz va xorijning yetakchi oliy taʼlim muassasalarining oʻqituvchilari maʼruza oʻqishi yoʻli bilan taʼminlash;

universitetda har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashni, yuqori professionalizmni, ijtimoiy va shaxsiy faollikni taʼminlaydigan maʼnaviy-axloqiy ishlarni tashkil etish;

zamonaviy oʻquv-metodik komplekslarni tayyorlash va nashr etish, axborot-resurs markazi fondini yangi oʻquv, ilmiy, kasbga doir davriy adabiyotlar bilan muntazam yangilash;

yosh pedagog kadrlarni tarbiyalashning amaliy mexanizmlarini joriy etish, respublikaning yetakchi ilmiy va taʼlim muassasalarida muntazam stajirovkalarni tashkil etish yoʻli bilan professor-oʻqituvchilar tarkibi malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish;

universitetda ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, qoʻshma innovatsiya va amaliy ilmiy loyihalarni ishlab chiqish boʻyicha kadrlarning buyurtmachilari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

oʻquv auditoriyalari, laboratoriyalarni zamonaviy laboratoriya, kompyuter texnikasi bilan jihozlashni davom ettirish, talaba yoshlarga munosib yashash sharoitlari yaratish, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanishi uchun universitetning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2010-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi budjeti parametrlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan tegishli oʻzgartirishlarni kiritsin.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Andijon davlat universitetining xorijiy tillar fakultetiga keyingi yillarda taʼlimning aniq yoʻnalishlari boʻyicha qabul kvotasini belgilashda ushbu ixtisoslik mutaxassislariga boʻlgan real talabdan kelib chiqsinlar.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi oʻrinbosari R.S. Azimov va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,

2010-yil 30-avgust,

192-son

Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 30-avgustdagi 192-son qaroriga
1-ILOVA

## Andijon davlat tillar pedagogika instituti balansidan Andijon davlat universiteti balansiga bepul berilayotgan binolar va inshootlar

## ROʻYXATI

| Obyekt nomi | Joylashgan joyi |
|---|---|
| 1-oʻquv korpusi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| 2-oʻquv korpusi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| 3-oʻquv korpusi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| Oʻquv korpusi, sport kompleksi va axborot-resurs markazi bilan | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| Oshxona | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| 1 va 2-talabalar turar joyi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 20-uy |
| Profilaktoriy | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 20-uy |
| Dam olish zonasi | Xonobod shahri, “Kampirobod” QFY |

*(Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 35-36-son, 304-modda)*

**Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,

2010-yil 30-avgust,

192-son

Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 30-avgustdagi 192-son qaroriga
1-ILOVA

Andijon davlat tillar pedagogika instituti balansidan Andijon davlat universiteti balansiga bepul berilayotgan binolar va inshootlar

ROʻYXATI

| Obyekt nomi | Joylashgan joyi |
|---|---|
| 1-oʻquv korpusi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| 2-oʻquv korpusi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| 3-oʻquv korpusi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| Oʻquv korpusi, sport kompleksi va axborot-resurs markazi bilan | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| Oshxona | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 5-uy |
| 1 va 2-talabalar turar joyi | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 20-uy |
| Profilaktoriy | Andijon shahri, Bobur shoh koʻchasi, 20-uy |
| Dam olish zonasi | Xonobod shahri, “Kampirobod” QFY |

*(Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 35-36-son, 304-modda)*